

**“DEVONU LUG‘OTI-T-TURK” ASARIDA
XORAZM SHEVASIGA XOS FONETIK
XUSUSIYATLAR**

*Boltayeva Zilola Yo‘ldoshali qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti “O‘zbek tili va
adabiyoti” kafedrasida o‘qituvchisi*

**ФОНЕТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ
ХАРАКТЕРНЫЕ ДЛЯ ХОРЕЗМСКОГО
ДИАЛЕКТА В ПРОИЗВЕДЕНИИ “ДЕВОНУ
ЛУГАТИТ-ТЮРК”**

*Болтаева Зилола Юлдашали кизи
Преподаватель кафедры узбекского языка и
литературы Ташкентского университета прикладных наук*

**PHONETIC FEATURES CHARACTERISTIC OF
THE KHOREZM DIALECT IN THE WORK
“DEVONU LUGOTIT-TURK”**

Boltayeva Zilola Yo‘ldoshali qizi

*Teacher of the Department of Uzbek language and literature of Tashkent University of Applied
Sciences*

Annotatsiya. Maqolada “Devonu lug‘otit-turk” asarining fonetik xususiyatlari chuqur o‘rganilgan, Xorazm shevasi o‘g‘uz va qipchoq lahjalaridagi fonetik xususiyatlarning asarda aks etishi batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, shevaning leksik birliklarini “At-tuhfa” asari bilan taqqoslash amalga oshiriladi. Misollarni tahlil qilishda taqqoslash, qiyosiy-tarixiy kabi bir qator lingvistik metodlardan samarali foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: “Devon-lug‘otit-turk”, dialektologiya, fonetika, Xorazm-o‘g‘uz va qipchoq lahjalari, fonetik xususiyatlar, tovushlarning qisqarishi, orttirilishi va almashishi.

Аннотация. В статье углубленно изучаются фонетические особенности произведения “Девону луготит тюрк”, подробно анализируются проявления этого языкового уровня в произведении на хорезмском огузском и кипчакском диалектах узбекского языка, и этого мнения придерживаются в селе. Также проводится сравнение лексических единиц диалекта с произведением “Аттухфа”. При анализе примеров был эффективно использован ряд лингвистических методов, таких как сравнение, сравнительно-исторический.

Ключевые слова: “Девонско-луготит тюрк”, диалектология, фонетика, хорезмско-огузский и кипчакский диалекты, фонетические особенности, редуцирование, усиление и замена звуков.

Annotation. In the article, the phonetic features of the work “Devonu lugoti-t-turk” are studied in depth, the manifestations of this language level in the work in the Khorezm Oghuz and Kipchak dialects of the Uzbek language are analyzed in detail, and this opinions are held in the village. Also, lexical units in the dialect are compared with the work “At-tuhfa”. A number of linguistic methods, such as comparison, comparative-historical, were effectively used in the analysis of examples.

Keywords: “Devonu lugotit-turk”, dialectology, phonetic, Khorezm Oghuz and Kipchak dialects, phonetic features, sound reduction, sound increase and exchange.

KIRISH. Ma’lumki, har qanday til hodisasini birlamchi manbalarga asoslanib, yozma yodgorliklar tarixiy jihatdan o‘rganishning yagona ilmiy yo‘li tili bilan hozirgi tilni qiyoslash, shu asosda ikki



[https://orcid.org/
0009-0003-2467-9513](https://orcid.org/0009-0003-2467-9513)

[zilolaboltayeva3885@gmail.
com](mailto:zilolaboltayeva3885@gmail.com)

+998974003885

oradagi yaqinlikni, farq va yangiliklarni aniqlashdir. Markaziy Osiyo xalqlari ko'p asrlar davomida yaratgan noyob madaniy yodgorliklar qatoriga shu xalq farzandlari yaratgan lug'atlar ham kiradi. Bunday lug'atlarning nodir qo'lyozmalari bizgacha yetib kelgan va ularning ba'zilar nashr qilingan, ular asosida ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borilgan.

O'zbek leksikografiyasiga bevosita aloqador qo'lyozma lug'atlar tuzish XI asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrni qamrab oladi va ularning ibtidosi, albatta, "Devonu lug'oti-t-turk" hisoblanadi. Ushbu asar turkiy xalqlar tarixidagi dialektologik, izohli, etnografik, tarixiy-etimologik va boshqa lug'atlarning barcha unsurlarini qamrab oluvchi dastlabki universal lug'at bo'lib, o'z muallifini butun turkiy olamga ulug' adabiyotchi, tarixchi, geograf va boshqa ko'p fanlardan xabardor bo'lgan yirik fan arbobi, qomusiy olim sifatida tanitdi [9].

"Devonu lug'oti-t-turk" ustidagi kuzatishlarimizga ko'ra M.Koshg'ariy har bir tovush ustida maxsus tekshirish olib borgan va tilda bo'lgan har bir tovushni to'la ilmiy asosda o'rgangan. Tovushlarning kombinatsiya natijasidagi mavqelarini, fiziologik va akustik holatlarini aniqlab chiqadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Asardan olingan misollarni keltirdik: گالتىردى – **galtirdi** [7] so'zi hozirgi adabiy tilimizdagi *keltirdi* so'ziga teng. Olimning ta'kidlashicha, bu so'z ت - *t* bilan turkcha hisoblanadi, biroq د - *d* tovushi orqali talaffuz qilinishi faqat o'g'uzlarga xosdir. Ya'ni, o'g'uzlarning turklardan farqlanuvchi jihati ularning *t* tovushini *d* ga, *d* tovushini *t* ga aylantirib ishlatishlarida aks etadi. Chunonchi, تىق – **teyay** (tuya)ni o'g'uzlar دوا deydilar [7]. Tag'in ma'nosidagi تىقى - **taqi** ni دىقى - **daqi** deydilar. "Attuhfa"da qipchoqlar tuyani تىقوا – **töva**, tag'in so'zini داغى – **dag'i** deb qo'llaydi deyilgan. Ushbu so'z boshidagi *t* undoshining ham jaranglashishi ko'zga tashlanadi va o'g'uz va qipchoqlar tilining fonetik tizimiga ayni mos keladi. Ushbu hodisaga xos كىزدى - **gazdi** – kezdi [7], ya'ni aylanib yuribdi ma'nosidagi so'zni ham misol keltirishimiz mumkin.

Turklar va o'g'uzlar o'rtasidagi farq *m* va *b* tovushlarini talaffuz qilishida ekanligini Mahmud Koshg'ariy aytgan edi. Darhaqiqat, o'g'uzlar ba'zi so'zlarida ushbu xoslikka amal qilishadi. Lug'atda berilgan بۇز - **buz** (qattiq unli bilan) so'zi bunga mi-

soldir. Maqolda shunday kelgan: *Buzdan suv tamar*, ya'ni muzdan, albatta, suv tomadi [7]. Qadimgi turkiy tildagi bu ot dastlab **bu:z** tarzida talaffuz qilingan, keyinroq *u:* unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan, so'ngra so'z boshlanishidagi *b* undoshi m undoshiga almashgan: bu:z > buz > muz [8].

Ma'lumki, Xorazm o'g'uz va qipchoq shevalariga xos alohida xususiyat bor, bu ba'zi so'zlarning o'zaklarida va affikslarida *q*, *g'*, *k*, *g* tovushlari tushish hodisasidir. Chunonchi, *chiroq - chira*, *boshqar - bashar*, *sichqon - sichan*, *qutqar - qutar*, *kelguncha - galincha* va boshqalar. Mahmud Koshg'ariy bergan ma'lumotiga qaraydigan bo'lsak, "Devon"da keltirilgan ازغاق so'zi bizda hozir o'roq leksemasini ifodalovchi birlik XI asr tilida o'rg'oq tarzida qo'llangan. Mahmud Koshg'ariy bunday harf tushish hodisasini o'sha davrdayoq dialektal holat sifatida yuzaga kelganini aniqlagan edi. Chunonchi, bu xususiyat o'g'uz va qipchoq tilining xususiyati ekanini quyidagicha izohlaydi: o'g'uzlar *g'* yoki *q* o'rnida ا (**alif**) ishlatadilar. Masalan: تىرغاق – **targ'oq** so'zidagi *g'* ham shundaydir [7].

Tabiiyki, "Devonu lug'oti-t-turk"da berilgan سوغوردى – **sug'ardi** [7] fe'li ham bunga misol bo'la oladi. Bu so'z hozirgi o'zbek tilidagi *sug'ordi* fe'li hisoblanadi: *u otni sug'ordi* misolidagi kabi. O'zbek tilining etimologik lug'atida qadimgi turkiy tilda ham shu ma'noni anglatgan va *sug'ar* tarzida talaffuz qilingan. Devon bo'yicha tuzilgan Indeksiga ilova qilingan grammatik ko'rsatkichda bu fe'l *suv* otidan - *g'ar* qo'shimchasini qo'shish orqali yasalganligi ta'kidlanadi. Asli bu so'z *suv* otiga -*g'a* qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan bo'lib, oxiridagi *r* qo'shimchasi ma'noni kuchaytirish uchun qo'shilgan deb keltiriladi¹. Davrlar o'tib bu so'zda tovush o'zgarishi yuz bergan, ya'ni *sug'ar* so'zida kelgan *v* undoshi o'zbek tilida hozirda talaffuz qilinmay qo'ygan. Biroq turk tilida *g'* undoshi talaffuzda aks etmaydi. Xuddi shuningdek, Xorazm o'g'uz shevasida turk tilidagidek *g'* undoshi tushirib talaffuz qilinadi: *suvarmaq* kabi. Chunki shevaning til xususiyatiga ko'ra, suv so'ziga -*ar* fe'l yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida *suvarmaq* fe'li hosil qilinadi. Biroq Xorazm qipchoq shevasida mazkur so'zning yasalish qoidasi "Devon"dagi bilan bir xildir.

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимлогик луғати. I жилд. – Тошкент. 2000. –Б. 311.

Mahmud Koshg'ariy unli va undosh tovushlar, ularning xarakteristikasi, tovush almashinishi qonuniyatlari haqida o'rinli fikrlarni bayon qiladi. Xususan, adibning izohlashicha, asl turkiy tillarda *h* tovushi uchramaydi, faqat **رَا أَهْدَى** *odam oh urdi* gapidagina qo'llanadi. Shunda ham bu so'zdagi *h* ko'krakdan chiqadigan tovushdir deydi. Misol tariqasida aytiladiki, boyqushni **أوهى** - *uhi* deydiganlar bo'lsa ham, asl turklar **أوكى** - *uki* deydilar. Avvalo, ushbu qoida asosida fikr yuritadigan bo'lsak, biz ko'rib chiqayotgan o'g'uz sheva vakillari tilida ham ushbu qoidaga amal qilinadi. Masalan, adabiy tilida uchraydigan *mehnat*, *mehribon*, *rahm* va bir qator *h* undoshi mavjud bo'lgan so'zlarni o'g'uz shevasida quyidagicha talaffuz qilinadi: *me:nat*, *me:rivan*, *ra:ym*. Ko'rinib turibdiki, *h* undoshining tushirilishi natijasida unlilar cho'ziq talaffuz qilinadi. Masalan, lug'atda **أَكْرُ** - **o'kuz** [7], **أُرْكُتَى** - **urkdi** [7] so'zlari berilgan. Hozirgi o'zbek tilidagi *ho'kiz* va *hurkmoq* so'zlariga teng keladigan ushbu misollar o'g'uz shevalarida lug'atdagi qoidaga muvofiq talaffuz qilinadi. Qipchoq shevalari ham bunga amal qiladi: **وَكُورَا** - **o'kuz** [4], **وَرُوكْتَى** - **urukdi** [4].

MUHOKAMA (OBSUJDENIJE/DISCUSSION)

“Devonu lug'oti-t-turk”da Xorazm shevasiga taalluqli tovush almashish hodisasiga bir qator misollarni uchratamiz. Xususan, **أَرِقْ** - *ariq* - oriq, zaif (o'g'uzcha va qipchoqcha) [7] sifat so'z turkumiga mansub leksema “Devon”da beriladi. Hozirgi adabiy tilida ham mazkur so'z *oriq* (*ozg'in*, *nimjon*) shaklida mavjud, lekin ba'zi sheva, xususan, o'g'uz sheva vakillari nutqida birinchi bo'g'indagi *o* unlisi *a* ga almashgan holda qo'llaniladi va DLT da keltirilgan misol bu fikrimizni isbotlaydi. Shuningdek, bu so'z adabiy tildagi *ariq* - *sun'iy yo'l bilan hosil qilingan suv yo'li* so'zi bilan omonimlikni hosil qiladi, ammo o'g'uz shevasida bu ma'nodagi so'zni umuman boshqa leksema ifodalaydi, ya'ni Xorazm o'g'uz shevasida *oriq* (*sifat*) - *ariq*, *ariq* (*ot*) - *salma* leksemalari bilan ifodalanadi.

Ot so'z turkumiga mansub **يُرِنْجَا** *yorinja* - *yo'ng'ichqa* (o'g'uzcha) [7] deb keltirilgan quyidagi misolimiz shunisi bilan muhimki, devon yozilgan davrda ham, hozirgi o'zbek tili o'g'uz shevasida ham bir xil ko'rinishda talaffuz qilinadi va yoziladi. Adabiy til me'yorlariga asoslanib, *yo'ng'ichqa* so'zi bu yerda juda katta fonetik o'zgarishga uchragan. *O'* - *o*, *ch-j* ga almashgan, *r* undoshi orttirilgan, *q* undoshi tushib qolgan, *n* undoshi o'z o'rnini o'zgartirgan va natijada *yo'ng'ichqa* so'zi *yorinja* ko'rinishiga kelib

qolgan. Ushbu leksemani Fattoh Abdullayev quyidagicha izohlaydi: o'g'uz shevalaridagi ayrim so'zlarning fonetik strukturasi juda murakkab o'zgarishlar yuz berganki, bunday so'zlarning asl formasini topish ba'zan qiyin bo'ladi. Masalan, o'g'uz shevalarida *darpat* so'zi quyidagi o'zgarishlarga uchragan: *t>d*, *e>a*, *b>p* va *r* bilan *b-v* o'z o'rinlari almashtirgan, natijada *tebrat//tevrat* so'zi *darpat* shakliga ega bo'lgan; *yorinja* (*yo'ng'ichqa*) so'zida ham shuning kabi murakkab fonetik o'zgarish ro'y bergan [2].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION).

Ko'rinadiki, lug'at yaratilgan davrdan to bugungi kungacha bo'lgan uzoq muddatga qaramay, qiyosiy tahlilga tortilgan so'zlardagi fonetik hodisalarning katta qismi bugungi kunda o'zbek adabiy tilida kuzatilmasa ham, Xorazm shevasining o'g'uz va qipchoq guruhlari til xususiyatlari aks etgan ko'plab so'zlarda uchraydi. Ba'zilarida ma'no kengayishi mavjud, ba'zilarida esa fonetik o'zgarishlar shevaning o'g'uz va qipchoq lahjalarida mavjuddir. Bu esa tilimiz, shevalarimizning tarixiy asliyatini hanuzgacha saqlanib qolganidan darak beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Ashurboyev Samixon. O'zbek dialektologiyasi. - T.: Navro'z nashriyoti. 2016.
2. Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. -Т.: Фан, 1960.
3. Абдуллаев Ф. «Девону луғатит турк» асарида ўғуз компонентининг ўрни масаласи // ЎТА. - Тошкент: 1971, № 5, 51-56-бетлар.
4. Аттухфатуз закияту филиғатит туркия. Таржимон ва нашрга тайёрловчи. С.М. Муталлибов. - Тошкент: 1968. - 280 б
5. Дадабоев Х. «Девону луғотит турк»даги туркий тилларга хос фонетик ва лексик-семантик хусусиятлар ҳақида // Тилшуносликнинг долзарб масалалари. - Тошкент: 2008, 3-9-бетлар
6. Ишаев А. «Девону луғатит турк» ва ўзбек шевалари // ЎТА. - Тошкент: 1971, № 5, 63-67-бетлар.
7. Махмуд ибн Хусайн ибн Муҳаммад Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғоти-т-турк) [3 жилдлик]. 1-3-жилд. Нашрга тайёрловчилар: А.Рустамов, Х.Болтабоев. —Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2016.
8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимлогик луғати. I жилд. - Тошкент. 2000. -Б. 311.
9. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 3-жилд. - Тошкент, 2002. -Б. 230-231.